

SURXONDARYO VILOYATI TUMAN DAVLAT ARXIVLARI FAOLIYATI: HUJJATLARNI SAQLASH, RAQAMLASHTIRISH VA TARIXIY MEROSNI ASRASH MASALALARI

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi

Ashurov Sodiqjon Komil o'g'li

Email: ashurovsodiqjon55@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlarining faoliyati, hujjatlarni jamlash, hisobga olish va saqlash tizimi tahlil qilingan. Shuningdek, arxiv hujjatlarini raqamlashtirish jarayonlari, tarixiy manbalarni asrash bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish istiqbollari yoritilgan. Tuman arxivlarining hudud tarixini o'rganishdagi o'rni va ahamiyatiga alohida e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: arxiv, hujjat, raqamlashtirish, tarixiy meros, tuman davlat arxivi, saqlov birligi, arxiv fondi, Surxondaryo.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность государственных архивов районов Сурхандарьинской области, анализируются процессы комплектования, учета и хранения архивных документов. Освещаются вопросы цифровизации архивных материалов, сохранения исторического наследия, а также существующие проблемы и перспективы их решения. Особое внимание уделено роли районных архивов в изучении истории региона.

Ключевые слова: архив, документ, цифровизация, историческое наследие, районный государственный архив, архивный фонд, единица хранения, Сурхандарьинская область.

Abstract: This article examines the activities of district state archives in Surkhandarya region, focusing on the collection, registration, and preservation of archival documents. It also discusses the processes of digitization, the protection of historical heritage, and the challenges and prospects in archival management. Special attention is

paid to the role of district archives as important sources for studying the history of the region.

Keywords: archive, document, digitization, historical heritage, district state archive, archival fund, storage unit, Surkhandarya region.

Kirish: Arxivlar har qanday davlatning tarixiy xotirasini saqlovchi, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotini aks ettiruvchi muhim muassasalardan biridir. Arxiv hujjatlarida xalqning o'tmishi, davlat boshqaruvi, xo'jalik faoliyati, ilm-fan va madaniyatga oid qimmatli ma'lumotlar mujassam bo'lib, ular tarixiy tadqiqotlar olib borish, fuqarolarning huquqiy manfaatlarini ta'minlash hamda milliy merosni asrab-avaylashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois arxiv ishini takomillashtirish, hujjatlarni ishonchli saqlash va ulardan samarali foydalanishni ta'minlash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida arxiv sohasini rivojlantirish, hujjatlarni saqlashning zamonaviy usullarini joriy etish hamda arxiv fondlarini raqamlashtirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayonlarda hududiy va tuman davlat arxivlarining o'rnini alohida ahamiyatga ega bo'lib, ular mahalliy tarix, iqtisodiyot, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy hayotga oid hujjatlarni jamlash va saqlash vazifasini bajaradi. Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlari ham viloyatning boy tarixiy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim o'rin tutadi. Ushbu arxivlarda davlat tashkilotlari, korxona va muassasalar faoliyatiga oid minglab hujjatlar, shuningdek, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini yorituvchi qimmatli manbalar saqlanadi. Arxiv fondlarining muntazam ravishda boyitilishi, hujjatlarning ilmiy-texnik jihatdan qayta ishlanishi hamda raqamlashtirish jarayonlarining yo'lga qo'yilishi arxiv ishining samaradorligini oshirmoqda.

Asosiy qism: Surxondaryo viloyatida arxiv ishining shakllanishi uzoq tarixga ega. Viloyat davlat arxivi 1934-yilda tashkil etilgan bo'lib, keyinchalik viloyatning ma'muriy-hududiy rivojlanishi natijasida tuman davlat arxivlari ham bosqichma-bosqich faoliyat yurita boshlagan. Bugungi kunda viloyat hududida faoliyat olib borayotgan tuman arxivlari davlat arxiv fondining tarkibiy qismi sifatida o'z faoliyatini amalga oshirmoqda. Tuman davlat arxivlarining tashkil etilishi mahalliy boshqaruv organlari, korxona va tashkilotlar

faoliyati davomida yaratilgan hujjatlarni markazlashgan holda saqlash zaruratidan kelib chiqqan. Jumladan, Angor tuman davlat arxivi 1980-yilda tashkil etilgan bo'lsa, Sho'rchi tuman davlat arxivi 1978-yildan buyon faoliyat yuritib kelmoqda. Bu esa Surxondaryo hududida arxiv tizimining XX asrning ikkinchi yarmida yanada rivojlanganligini ko'rsatadi. Tuman davlat arxivlarining asosiy vazifasi davlat saqloviga topshirilishi lozim bo'lgan hujjatlarni qabul qilish, ularni fondlarga ajratish, ilmiy-texnik jihatdan tartibga keltirish va uzoq muddat saqlanishini ta'minlashdan iborat. Arxiv fondlari tarkibida hokimliklar, ta'lim muassasalari, sog'liqni saqlash tashkilotlari, qishloq xo'jaligi korxonalari, sud va prokuratura organlari, statistika idoralari hamda boshqa tashkilotlarning faoliyatiga oid hujjatlar mavjud. Ushbu hujjatlar hududning siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotini yorituvchi muhim tarixiy manbalar hisoblanadi.

Arxiv muassasalari nafaqat hujjatlarni saqlaydi, balki ulardan foydalanish imkoniyatlarini ham yaratadi. Fuqarolar mehnat stajini tasdiqlash, ish haqi to'g'risida ma'lumot olish, ta'lim olganligi yoki boshqa huquqiy masalalarni hal etish uchun arxivlarga murojaat qiladilar. Shu sababli tuman davlat arxivlari aholiga davlat xizmatlarini ko'rsatishda ham muhim o'rin egallaydi. Arxiv ma'lumotnomalari ko'plab fuqarolarning pensiya tayinlash, meros masalalarini hal etish va boshqa huquqiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi. So'nggi yillarda arxivlar faoliyatini modernizatsiya qilish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Arxiv binolarini ta'mirlash, saqlovxonalarini zamonaviy uskunalar bilan jihozlash, hujjatlarni elektron shaklga o'tkazish va axborot tizimlarini joriy etish ishlari arxiv xizmatlari sifatini oshirmoqda. Masalan, Sherobod tuman davlat arxivida zamonaviy arxiv binosi qurilgan bo'lib, unda o'n minglab saqlov birliklari saqlanmoqda va raqamlashtirish ishlari olib borilmoqda. Tuman davlat arxivlari ilmiy tadqiqotlar uchun ham katta ahamiyatga ega. Tarixchilar, o'lkashunoslar, magistrantlar va talabalar hudud tarixiga oid ma'lumotlarni aynan arxiv fondlari orqali o'rganadilar. Ayniqsa, sovet davri, qishloq xo'jaligi islohotlari, ta'lim tizimi, mahalliy boshqaruv organlari faoliyati va aholi turmushiga oid hujjatlar tadqiqotchilar uchun muhim manba hisoblanadi. Shu bois tuman davlat arxivlari nafaqat

hujjatlarni saqlovchi muassasa, balki ilmiy-tadqiqot ishlarini qo‘llab-quvvatlovchi markaz sifatida ham faoliyat yuritmoqda.

Tuman davlat arxivlari faoliyatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri arxiv hujjatlarini qabul qilish, hisobga olish va ularning uzoq muddat saqlanishini ta‘minlashdan iborat. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar davlat va jamiyat hayotining turli sohalarini yorituvchi qimmatli axborot manbai bo‘lib, ularni kelajak avlodlarga butun holda yetkazish arxiv xodimlarining asosiy vazifalaridan hisoblanadi. Shu sababli hujjatlarni saqlash va hisobga olish jarayonlari qat‘iy me‘yorlar asosida amalga oshiriladi. Milliy arxiv fondi tarkibiga kiritilgan hujjatlar davlat muhofazasida bo‘lib, ular davlat mulki hisoblanadi va alohida tartibda saqlanadi. Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlarida hujjatlar avvalo ularning tarixiy, ilmiy, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatidan kelib chiqib ekspertizadan o‘tkaziladi. Hujjatlarning qimmatdorligini aniqlash natijasida doimiy saqlanishi lozim bo‘lgan materiallar arxiv fondlariga qabul qilinadi. Bu jarayon arxiv fondlarini tasodifiy hujjatlardan tozalash va tarixiy ahamiyatga ega manbalarni saqlab qolish imkonini beradi. Arxivga qabul qilingan hujjatlar ma‘lum fondlar tarkibiga joylashtiriladi. Fondlar odatda hujjatlarni yaratgan tashkilot, muassasa yoki korxona nomi bilan shakllantiriladi. Har bir fond ichidagi hujjatlar yig‘majildlarga ajratilib, ularga tartib raqamlari beriladi. Natijada har bir hujjatning qayerda saqlanayotgani aniq ko‘rsatkichlar orqali belgilab qo‘yiladi. Bunday tizim arxiv materiallaridan foydalanishni yengillashtirib, kerakli ma‘lumotlarni qisqa vaqt ichida topish imkonini yaratadi. Arxiv hujjatlarini fondlar va saqlov birliklari bo‘yicha turkumlashtirish arxiv ishining asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi.

Tuman arxivlarida hujjatlarning jismoniy holatini saqlash masalasiga ham katta e‘tibor qaratiladi. Arxiv saqlovxonalarida harorat va namlik me‘yorlari nazorat qilinadi, hujjatlarni zararli hasharotlar, mog‘or va boshqa tashqi ta‘sirlardan himoya qilish choralari ko‘riladi. Hujjatlar maxsus javonlarda saqlanib, ularning yaroqlilik holati muntazam ravishda tekshirilib boriladi. Ayniqsa, sovet davri va mustaqillikning dastlabki yillariga oid hujjatlar tarixiy ahamiyati yuqori bo‘lgani sababli alohida nazorat ostida saqlanadi. Arxivlarda hisobga olish ishlari maxsus ro‘yxatlar, fond pasportlari, yig‘majildlar

tavsifnomalari va elektron ma'lumotlar bazalari orqali yuritiladi. Har bir yangi qabul qilingan hujjat tegishli hisob hujjatlarida qayd etilib, uning saqlov birligi, fond raqami va mazmuni ko'rsatiladi. Bu esa arxiv fondlarining hajmi va tarkibini nazorat qilish, shuningdek hujjatlar harakatini kuzatib borish imkoniyatini yaratadi. O'zbekiston davlat arxivlarida millionlab saqlov birliklari mavjud bo'lib, ularni hisobga olish arxiv tizimining eng muhim vazifalaridan biri sanaladi. Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlarida fuqarolarning murojaatlari asosida arxiv ma'lumotnomalari, arxiv nusxalari va ko'chirmalari tayyorlanadi. Buning uchun arxiv xodimlari fondlar tarkibidagi hujjatlarni o'rganib, kerakli ma'lumotlarni aniqlaydilar. Mehnat staji, ish haqi, ta'lim olganlik yoki boshqa huquqiy masalalarni tasdiqlovchi hujjatlarning saqlanganligi ko'plab fuqarolarning ijtimoiy himoyasini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi arxivlar faoliyatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Hujjatlarni an'anaviy shaklda saqlash bilan bir qatorda ularni elektron ko'rinishga o'tkazish, ma'lumotlar bazalarini yaratish va masofadan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zamonaviy arxiv ishining muhim yo'nalishiga aylandi. Shu sababli Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlarida ham hujjatlarni raqamlashtirish va elektron axborot resurslarini shakllantirish bo'yicha izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni avvalo tarixiy va ilmiy ahamiyatga ega hujjatlarni elektron nusxaga ko'chirishdan boshlanadi. Bu jarayonda hujjatlar maxsus skanerlar yordamida raqamli formatga o'tkazilib, elektron bazalarga joylashtiriladi. Natijada hujjatlarning asl nusxalaridan foydalanish kamayadi va ularning jismoniy eskirishining oldi olinadi. Ayniqsa, uzoq yillar davomida saqlanib kelayotgan, qog'oz sifati yomonlashgan yoki noyob hisoblangan hujjatlarni raqamlashtirish ularni saqlab qolishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Surxondaryo viloyati tuman arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar orasida mahalliy davlat boshqaruvi organlari faoliyatiga oid materiallar, qishloq xo'jaligi va sanoat korxonalari hujjatlari, ta'lim va madaniyat muassasalari faoliyatini yorituvchi manbalar mavjud. Ushbu hujjatlarning elektron shaklga o'tkazilishi nafaqat ularni saqlash sifatini yaxshilaydi, balki tadqiqotchilar va fuqarolar uchun foydalanish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Elektron kataloglar va

ma'lumotlar bazalarining yaratilishi zarur hujjatlarni tezkor qidirish va ularga murojaat qilish imkonini bermoqda. Raqamlashtirish jarayoni arxiv fondlarining xavfsizligini ta'minlashda ham muhim ahamiyatga ega. Tabiiy ofatlar, yong'in, namlik yoki boshqa favqulodda holatlar natijasida hujjatlarga zarar yetishi mumkin. Elektron nusxalarning mavjudligi bunday holatlarda tarixiy axborotning yo'qolib ketishining oldini olishga xizmat qiladi. Shu bois zamonaviy arxiv amaliyotida hujjatlarning elektron zaxira nusxalarini yaratish muhim vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Tarixiy merosni asrash masalasi arxivlar faoliyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar ma'lum bir davrning siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotini aks ettiruvchi noyob manbalar hisoblanadi. Surxondaryo viloyati tuman arxivlarida saqlanayotgan hujjatlar orqali hududning ma'muriy boshqaruvi, qishloq xo'jaligining rivojlanishi, ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, aholi turmushi va boshqa ko'plab masalalarni o'rganish mumkin. Shu sababli ushbu hujjatlarni saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish nafaqat arxiv xodimlarining, balki jamiyatning ham muhim vazifasi hisoblanadi. Bugungi kunda arxivlarda tarixiy hujjatlarni targ'ib qilish, ko'rgazmalar tashkil etish, ilmiy-amaliy konferensiyalar o'tkazish va yoshlarni arxiv materiallari bilan tanishtirish ishlari ham yo'lga qo'yilgan. Bu tadbirlar aholining tarixiy merosga bo'lgan qiziqishini oshirish, milliy o'zlikni anglash va tarixiy xotirani mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, mahalliy tarixga oid hujjatlarning keng jamoatchilikka taqdim etilishi o'lkashunoslik va tarixshunoslik tadqiqotlarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, tuman davlat arxivlari faoliyatida ayrim muammolar ham mavjud. Ba'zi arxivlarda texnik jihozlarning yetarli emasligi, raqamlashtirish uchun zarur uskunalarning sonining cheklanganligi hamda malakali mutaxassislar yetishmasligi elektron arxiv tizimini jadal rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Shuningdek, eski hujjatlarning jismoniy holati ham ularni raqamlashtirish jarayonida qo'shimcha ehtiyotkorlikni talab etadi. Kelgusida Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish, elektron arxiv fondlarini boyitish, hujjatlarning raqamli nusxalarini yaratish hajmini oshirish hamda arxiv xizmatlarini elektron shaklda ko'rsatishni rivojlantirish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi. Mazkur chora-tadbirlar

tarixiy merosni ishonchli saqlash, undan foydalanish samaradorligini oshirish va arxivlar faoliyatini zamonaviy talablar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlari hududning tarixiy xotirasini saqlash, davlat va jamiyat faoliyatiga oid hujjatlarni jamlash hamda ulardan foydalanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Arxiv fondlarida saqlanayotgan hujjatlar viloyat va tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotini o'rganishda qimmatli manba vazifasini bajaradi. Shu sababli arxivlar faoliyati nafaqat hujjatlarni saqlash bilan cheklanib qolmay, balki tarixiy merosni asrash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va fuqarolarning huquqiy manfaatlarini ta'minlashga ham xizmat qiladi. Tadqiqot davomida Surxondaryo viloyati tuman davlat arxivlarida hujjatlarni qabul qilish, hisobga olish va saqlash ishlari belgilangan me'yorlar asosida tashkil etilgani, arxiv fondlarining muntazam ravishda boyitib borilayotgani aniqlandi. Arxivlarda saqlanayotgan hujjatlar hudud tarixini yorituvchi muhim manbalar bo'lib, ulardan samarali foydalanish tarixshunoslik va o'lkashunoslik tadqiqotlarining rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, raqamlashtirish jarayonlari arxiv ishini zamonaviy bosqichga olib chiqishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hujjatlarni elektron shaklga o'tkazish ularning xavfsizligini ta'minlash, saqlash muddatini uzaytirish hamda foydalanuvchilar uchun qulaylik yaratishga xizmat qiladi. O'zbekiston arxiv tizimida Milliy arxiv fondi hujjatlarini saqlash, hisobga olish va ulardan keng foydalanishni ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan bo'lib, bu jarayonda hududiy va tuman arxivlari muhim bo'g'in hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Surxondaryo viloyati davlat arxivi rasmiy ma'lumotlari – Surxondaryo viloyati davlat arxivining tashkil etilgan sanasi, faoliyati va aloqa ma'lumotlari.
2. O'zbekiston arxivlari portali – O'zbekiston Respublikasi arxiv tizimi, Milliy arxiv fondi va arxiv faoliyatiga oid rasmiy ma'lumotlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Milliy arxiv fondi haqida – Milliy arxiv fondini shakllantirish, saqlash va undan foydalanish tartibi.

4. Saidboboyev Z.A. **Arxivshunoslik**. – Toshkent: Turon-Iqbol, 2018. Elektron manba: Urganch davlat universiteti elektron kutubxonasi
5. Alimov I.A. **Arxivshunoslik**. – Toshkent: Tafakkur Bo‘stoni, 2015. Elektron manba: Chirchiq davlat pedagogika universiteti elektron kutubxonasi
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining arxiv ishi va ish yuritishga oid normativ-huquqiy hujjatlari. Elektron manba: Archive.uz normativ hujjatlar bo‘limi
7. Surxondaryo viloyati hokimligi rasmiy portali – viloyatning ma'muriy-hududiy tuzilishi va hududiy tashkilotlar haqida ma'lumotlar.
8. Surxondaryo viloyati davlat arxivi ma'lumotnomasi – arxivning joylashuvi va faoliyat yo‘nalishlariga oid ma'lumotlar.